

Termiz muloqoti Markaziy va Janubiy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirishning asosiy jihatlarini muhokama qilish uchun muhim va dolzarb



MDH Bosh kotibi o'rinosasi Denis Trefilov "Dunyo" AA muxbiri bilan suhbatda joriy yilning 19-21-may kunlari Termiz shahrida o'tayotgan "Tinchlik, do'stlik va farovonlikning umumiyligini barpo etish" mavzusidagi Markaziy va Janubiy Osiyo o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik bo'yicha Termiz muloqotining birinchi yig'ilishining ahamiyati haqidagi fikrlarini bildirdi.

- 19-21-may kunlari Termiz shahrida Markaziy va Janubiy Osiyo o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik bo'yicha Termiz muloqotining birinchi muloqoti bo'lib o'tadi. Forum Yevroosiyoning ikki makromintaqalari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga bag'ishlangan. Sizningcha, Termiz muloqoti bugungi kunda qanchalik dolzarb?
- Bugun biz hayotimizning deyarli barcha jabhalarida global o'zgarishlar davrini boshdan kechirmoqdamiz va o'zaro hamkorlikning yangi modellarini izlayapmiz. Ko'p jihatdan amalga oshirilayotgan o'zgarishlar tufayli Katta Yevroosiyo hamkorligi doirasidagi hamkorligimiz umumiyligini kelajagimizni asrab-avaylash yo'lida faollashdi.

Shu munosabat bilan Termiz muloqoti Markaziy va Janubiy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirishning asosiy jihatlarini muhokama qilish uchun muhim va dolzarbligini ta'kidlamoqchiman. Bizning fikrimizcha, buning uchun obyektiv shart-sharoitlar mavjud, chunki ularni umumiyligini tarixiy, ijtimoiy va madaniy ildizlar birlashtiradi.

MDH Ijroiya qo'mitasi O'zbekiston rahbariyatining mintaqasi davlatlari o'rtasida muloqot maydonini barpo etishga bo'lgan izchil intilishi tashabbusini to'liq qo'llab-quvvatlaydi.

Bunday muloqot suverenitetga hurmat, sivilizatsiyalar xilma-xilligi va teng huquqli hamkorlik xalqaro

munosabatlarning asosiy tamoyillariga aylangan adolatli ko'p qutbli dunyoni barpo etish uchun zarur.

Haqiqiy barqarorlik iqtisodiyot va madaniyat yonma-yon bo'lgan joyda tug'iladi. Aynan shu yondashuv - iqtisodiyot, madaniyat va umumiylar uyg'unligi - MDHni Yevroosiyo mintaqasining kelajagi barpo etilayotgan makonga aylantiradi.

Ishonamanki, barchamizni birlashtiruvchi eng muhim platforma bu umumiy madaniy merosimiz ekanligiga qo'shilasiz. Uning negizida tarixiy-ijtimoiy hamjihatlik, ma'naviy an'ana va qadriyatlarimiz, xalqlarimiz o'rtasidagi ishonch mujassam. MDHda madaniy-gumanitar hamkorlik doirasida ta'llim, sog'lioni saqlash, fan, turizm, sport, yoshlarning xalqaro hamkorligi masalalariga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Bizningcha, Termiz muloqoti mintaqalararo o'zaro bog'liqlikni yanada mustahkamlash, keng Yevroosiyo qit'asida tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikni saqlashga xizmat qiladi.

- Aksariyat ekspertlarning fikricha, dunyoda kechayotgan inqirozli hodisalar sharoitida mintaqalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, hamkorlik va ishonch mamlakatlar xavfsizligi va barqarorligini ta'minlashning asosiy tayanchlariga aylanib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan, bugungi kunda Markaziy va Janubiy Osiyo o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni mustahkamlash qanchalik muhim deb o'ylaysiz?

- Markaziy Osiyo davlatlarining qulay geografik joylashuvi va keng transport infratuzilmasi tashqi bozorlarga chiqishni diversifikatsiya qilish va mintaqalarini transchegaraviy ishlab chiqarish zanjirlariga faol jalb qilish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, umumiy transport-kommunikatsiya salohiyatidan to'liq foydalanish nafaqat o'zaro tovar ayriboshlash hajmini oshirish, balki mintaqalararo darajada o'zaro manfaatli hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Markaziy Osiyo davlatlari o'z taraqqiyotida sezilarli yutuqlarga erishdi va iqtisodiy o'sish uchun yaxshi salohiyatni namoyish etmoqda.

Qo'shma loyihalarni amalga oshirish ishonch, iqtisodiy taraqqiyot va xavfsizlik makonini yaratishga qo'shilayotgan amaliy hissadir. Bunday loyihalarga iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish, "Katta Yevroosiyo hamkorligi plus" yagona iqtisodiy makonini shakllantirish, tovar ayriboshlash hajmini oshirish, erkin savdo zonalarini yaratish, transkontinental transport infratuzilmasini shakllantirish, milliy valyutalarda hisob-kitoblar ulushini oshirish va boshqalar kiradi.

Belgilangan vazifalarni birgalikda hal etish xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish va samarali sheriklikni yanada chuqurlashtirishning samarali shakllarini ishlab chiqishda yangi turtki bo'lib xizmat qiladi.

MDH ushbu jarayonning faol ishtirokchisi bo'lishga tayyor, muloqot maydoni va samarali yechimlarni taklif etadi.

Hamdo'stlikning 30 yildan ortiq tarixi shuni ko'rsatdiki, tuzilmamiz davlatlarimiz uchun yuzaga kelayotgan tashqi va ichki muammolarga universal javobdir. Bu davrda MDH nufuzli xalqaro tashkilotga aylandi. MDHning maqsad va tamoyillari o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q, ular haligacha barcha ishtirokchilar manfaatlariga javob beradi, xalqaro munosabatlarni rivojlanirishning zamonaviy tendensiyalarini to'la aks ettiradi.

Hamdo'stlik bozorlarni ochish va a'zo davlatlarning xo'jalik yurituvchi subyektlari xo'jalik faoliyatini amalga oshirish uchun teng sharoitlar yaratish bo'yicha ishlarni davom ettirmoqda. O'zaro savdoni rag'batlantirish, norma va standartlarni uyg'unlashtirish, tovar va xizmatlar harakatidagi to'siqlarni bartaraf etish choralar ko'rilmoxda. MDH kun tartibi mamlakatlarimiz faoliyatining deyarli barcha sohalarini, jumladan iqtisodiyot va ilmiy-texnikaviy sohadan tortib, madaniy-gumanitar hamkorlik, ijtimoiy soha va xavfsizlikni qamrab oladi.

- 2021-yil iyul oyida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan "Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy o'zaro bog'liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar" mavzusida yuqori darajadagi xalqaro

konferensiya bo'lib o'tdi. 2022-yilda O'zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasining "Markaziy va Janubiy Osiyo o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash" maxsus rezolyutsiyasi qabul qilindi. Ushbu hujjat ikki mintaqaga o'rtasida yaqinroq hamkorlik qilish uchun konseptual asos yaratdi. Mintaqalararo aloqalarni kengaytirishning keyingi istiqbollari va bu jarayonda O'zbekistonning rolini qanday ko'rasiz?

- Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, jumladan, Markaziy Osiyo davlatlarini o'z ichiga oladi hamda sobiq ittifoq hududidagi eng qadimgi, eng ko'p vakillik va integratsion birlashma hisoblanadi.

Murakkab geosiyosiy vaziyat va sezilarli tashqi bosimga qaramay, mamlakatlarimiz iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi. Shunday qilib, 2024-yilda MDH mamlakatlarida yalpi ichki mahsulotning o'sishi 4,5 foizni tashkil etdi, bu jahondagi o'rtacha ko'rsatkichdan yuqoridir.

Hamdo'stlik davlatlarining iqtisodiy sohadagi o'zaro hamkorligi barqaror platformaga asoslanadi va barcha mumkin bo'lgan yo'nalishlarni qamrab oladi. Mintaqada savdo-iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish uchun rag'batlantiruvchi omil 2011-yilda imzolangan erkin savdo zonasidir. Shu bilan birga, o'sishning yangi nuqtalarini aniqlash uchun bizda jiddiy salohiyat mavjud.

34 yillik faoliyati davomida Hamdo'stlik SHHT, BRIKS, YOII va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik qilishda katta tajriba to'plagan. MDH Yevroosiyodagi integratsiya jarayonlarini bog'lash va butun Yevroosiy makonida xavfsizlikni mustahkamlashga qaratilgan tashabbuslarni qo'llab-quvvatlaydi. O'zbekiston mintaqada integratsiya jarayonlarini kengaytirishning faol ishtirokchisi hisoblanadi. So'nggi paytlarda O'zbekiston hamkorlikning turli yo'nalishlariga oid ko'plab tashabbuslarni ilgari surmoqda va ular MDHga a'zo davlatlarda keng qo'llab-quvvatlanmoqda.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev MDH doirasidagi amaliy hamkorlikni kengaytirish va mavjud hamkorlik mexanizmlari samaradorligini oshirishga qaratilgan ko'plab tashabbuslar muallifidir.

Muxtasar aytganda, O'zbekiston xalqaro maydonda ishonchli hamkor bo'lib, inkor etib bo'lmaydigan obro'ga, uzoq muddatli va samarali hamkorlik uchun zarur salohiyatga ega.

Manba